


## IV. INVESTITSIYA VA QURILISH


2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 13 783,0 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati 180,8 %ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 8 659,9 mlrd. so‘mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2024- yilning yanvar-mart oylarida 4 505,9 ming so‘mni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘p ulushi, ya’ni 57,7 foizi viloyatning 4 ta hududi, jumladan, Olmaliq shahri (30,5 %), Yuqori Chirchiq tumani (13,9 %), Ohangaron tumani (6,9 %), Angren shahri (6,4 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so‘m)**




**2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sish sur'atlari (%da)**



Ayrim hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Jumladan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan Yuqorichirchiq tumanida – 5,9 m. %, Oqqo'rg'on tumanida – 5,2 m. %, Angren shahrida – 3,2 m. %, Chirchiq shahrida – 2,6 m. % yuqori bo'ldi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori**  
(ming so‘mda, %da)



■ Aholi jon boshiga      ■ O‘sish sur’ati

Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori ko‘rsatkichlari Olmaliq shahrida – 28 591,2 ming so‘m, Yuqori Chirchiq tumanida – 13 731,8 ming so‘m, Bekobod shahrida – 6 943,3 ming so‘m, Ohangaron shahrida – 6 208,7 ming so‘mni tashkil etdi.

Aksincha, past ko‘rsatkich Yangiyo‘l shahrida – 669,4 ming so‘mni va Bekobod tumanida – 626,3 ming so‘mni tashkil etdi.


**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

	<i>mldr. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>13 783,0</b>	<b>180,8</b>	<b>100</b>
shu jumladan:			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>648,0</b>	<b>89,2</b>	<b>4,7</b>
budjet mablag'lari	192,2	76,0	1,4
O'zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi	49,8	97,4	0,4
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	133,6	101,2	0,9
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	272,5	93,7	2,0
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>13 135,0</b>	<b>190,4</b>	<b>95,3</b>
korxonalarning o'z mablag'lari	2 626,0	127,5	19,1
bank krediti (boshqa qarz mablaglarini qo'shgan holda)	1 056,1	109,5	7,7
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	4 055,8	6,8 m.	29,4
aholi mablag'lari	1 065,5	116,3	7,7
Boshqa va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar	4 331,6	183,9	31,4


2024- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkich (jami investitsiyalarning 31,4 %i) Boshqa va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga (4 331,6 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

**2024- yil yanvar-mart oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarি**

### Markazlashgan investitsiyalar



### Markazlashmagan investitsiyalar



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi 2024- yilning yanvar-mart oylarida 4 055,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 barobar o‘sgan. Bunda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Yuqori Chirchiq (1 643,6 mlrd. so‘m) va Ohangaron tumanlariga (421,0 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Aksincha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha past natijalar Bo‘ka (11,3 mlrd. so‘m) va O‘rta Chirchiq tumanlarida (10,9 mlrd. so‘m) kuzatildi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya  
va kafolatlanmagan kreditlar**

(mlrd. so‘m)

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	<i>shu jumladan:</i>		To‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiya	Reinvestitsiya	Kafolat- lanmagan kreditlar
		Investitsiya	Kredit			
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>8 659,9</b>	<b>4 055,8</b>	<b>4 604,1</b>	<b>4 055,8</b>	<b>41,2</b>	<b>4 331,6</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	18,5	1,5	17,0	1,5		16,1
Olmaliq	3 479,9	29,9	3 450,0	29,9	0,3	3 450,0
Angren	519,4	406,7	112,7	406,7		112,7
Bekobod	339,1	339,1		339,1	0,1	
Ohangaron	117,2	117,2		117,2		
Chirchiq	356,8	342,9	13,9	342,9		13,9
Yangiyo‘l	23,9	3,0	20,9	3,0		
<i>tumanlar:</i>						
Oqqa‘rg‘on	193,2	44,0	149,1	44,0		149,1
Ohangaron	631,2	421,0	210,2	421,0		210,2
Bekobod	17,6		17,6			17,6
Bo‘stonliq	135,9	67,9	68,0	67,9	3,8	48,6
Bo‘ka	25,8	11,3	14,5	11,3		14,5
Quyi Chirchiq	138,1	97,7	40,4	97,7		15,0
Zangiota	214,6	103,6	111,0	103,6	4,1	30,2
Yuqori Chirchq	1 768,3	1 643,6	124,8	1 643,6		124,8
Qibray	280,3	179,1	101,2	179,1	13,7	62,1
<i>Parkent</i>						
Piskent						
O‘rta Chirchiq	10,9	10,9		10,9		
Chinoz	116,5	110,2	6,4	110,2		
Yangiyo‘l	217,5	88,7	128,8	88,7	19,3	49,3
Toshkent	55,1	37,4	17,7	37,4		17,7

**2024- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
texnologik tarkibi**

	<i>Jami mlrd. so‘m</i>	<i>Jami mlrd. so‘m</i>	<i>foizda</i>
<b>Jami, mln. so‘m</b>	<b>13 783,0</b>	<b>100</b>	
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan %da</i>			
qurilish-montaj ishlari	6 604,4	47,9	
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar	6 380,3	46,3	
boshqa harajatlar	798,3	5,8	


2024- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining 47,9 %ini qurilish-montaj ishlari tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo‘ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)**

	<i>yanvar-mart</i>			
	<i>2024- yil yanvar- mart.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>	<i>2023- yil yanvar- mart.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>
<b>Jami:</b>	<b>13 783,0</b>	<b>100</b>	<b>6 824,3</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha</i>				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 216,4	8,8	755,5	11,1

	<i>yanvar-mart</i>			
	<i>2024- yil yanvar- mart.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>	<i>2023- yil yanvar- mart.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>
tog‘-kon sanoati	4 347,4	31,5	1392,1	20,4
qayta ishslash sanoati	3 204,0	23,2	2163,4	31,7
elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash	1 898,6	13,8	63,2	0,9
suv bilan ta’minalish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig’ish va yo‘q qilish	257,1	1,9	623,8	9,1
qurilish	217,1	1,6	110,6	1,6
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	323,6	2,3	213,4	3,1
tashish va saqlash	231,6	1,7	168,7	2,5
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	74,4	0,5	66,7	1
aloqa va axborotlashtirish	102,1	0,7	10,7	0,2
moliya va sug‘urta faoliyati	9,3	0,1	14,5	0,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ishlar	43,7	0,3	57,8	0,8
malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat	85,0	0,6	54,7	0,8
ma’muriy va qo‘srimcha xizmatlar	46,2	0,3	78,8	1,2
davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta’minot	141,1	1,0	35,7	0,5
ta’lim	86,3	0,6	107,0	1,6
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	168,9	1,2	61,4	0,9
san’at, ko‘ngil ochish va dam olish	50,0	0,4	58,3	0,9
uy-joy qurilishi	1 018,0	7,4	785,5	11,4
boshqa faoliyat turlari	78,7	2,1	2,5	0,1

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatida – 3 204,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 23,2 %) tashkil etdi. Tog'kon sanoatida – 4 347,4 mlrd. so'm (31,5 %), uy-joy qurilishida – 1 018,0 mlrd. so'm (7,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 216,4 mlrd. so'm (8,8 %), davlat boshqaruvi va mudofaasi majburiy ijtimoiy ta'minotida – 141,1 mlrd. so'm (1,0 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda – 50,0 mlrd. so'm (0,4 %), tashish va saqlashda – 231,6 mlrd. so'm (1,7 %), suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilishda – 257,1 mlrd. so'm (1,9 %), malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyatda – 85,0 mlrd. so'm (0,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 168,9 mlrd. so'm (1,2 %), ta'limda – 86,3 mlrd. so'm (0,6 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 74,4 mlrd. so'm (0,5 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.


### Ijtimoiy soha obyektlarini qurilishi

2024- yil yanvar-mart oylarida umumiyl maydoni 424,5 ming kv.m. bo‘lgan 1 584 ta uy-joy, shundan, qishloq joylarida 319,0 ming kv.m. bo‘lgan 1161 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.


**Qurilish faoliyati.** 2024- yil yanvar-mart oylarida 3 563,3 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 111,1 %ni tashkil etdi.

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 90,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan esa 3 472,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi mos ravishda 2,6 % va 97,4 %ni tashkil etdi.

### Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiyl hajmiga nisbatan % hisobida)



**Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati**  
**(2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, %da )**



Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Toshkent tumani (167,1 %.), Piskent (138,5 %) va Chinoz (127,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Aksincha, eng past ko'rsatkich Yangiyo'l shahri (101,8 %) va Zangiota tumanlariga (101,7 %) to'g'ri keldi.